

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral
XITOIDA OLIY TA’LIM ISLOHOTLARI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI (1992—2022)

D.Umirova TDIU, katta o‘qituvchi
dilfuzamirova@yahoo.com +998977557511
Ma Syumei TDIU, XAU dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18928289>

Annotatsiya. Oliy ta’lim quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, fan, texnika va madaniyatni rivojlantirish hamda ijtimoiy taraqqiyotga ko‘maklashish. Maqolada hujjatli va tegishli manbalari asosida 1992–2022 yillar davomida Xitoyda oliy ta’lim tizimini isloh qilish jarayoni va uning institutlari tomonidan amalga oshirilgan sa’y-harakatlar tahlil qilinadi. Oliy ta’lim muassasalari soni va talabalar kontingentining o‘shish dinamikasi ochib berilib, mazkur jarayonning o‘ziga xos jihatlari va murakkabliklari qayd etiladi. Oliy ta’limni isloh qilish bosqichlari ajratib ko‘rsatiladi va ularning mazmuni yoritiladi, shuningdek, Xitoyning tayanch universitetlarni shakllantirish va yangi akademik fanlarni joriy etish borasidagi sa’y-harakatlari (“211-loyiha”, “985-loyiha”, “Double First Class Project” ta’kidlanadi).

Kalit so‘zlar: Xitoy; oliy ta’lim islohoti; oliy maktab islohotining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari; birinchi toifali universitetlar va akademik fanlar.

Annotation. Higher education solves such basic tasks as training highly qualified specialists, developing science, technology and culture, and promoting social development. The article, based on documentary and historiographical sources, analyzes the process of reforming higher education in China from 1992 to 2022 and the efforts of its institutions, reveals the dynamics of growth in the number of universities and the number of students, and notes the specifics and complexities of the process. The stages of higher education reform are highlighted and their content is revealed, China's efforts to create key universities and introduce new academic disciplines (“Project 211”, “Project 985”, “Double First Class Project” are highlighted).

Keywords: China; higher education; reforming education in China; education system of the People's Republic of China; dynamics of universities and students; universities and first class academic graduates.

Аннотация. Высшее образование решает такие фундаментальные задачи, как подготовка высококвалифицированных специалистов, развитие науки, техники и культуры, а также содействие социальному развитию. В статье, основанной на документальных и историографических источниках, анализируется процесс реформирования высшего образования в Китае с 1992 по 2022 год и усилия его учреждений, раскрывается динамика роста числа университетов и числа студентов, отмечаются особенности и сложности процесса. Выделены этапы реформирования высшего образования и их содержание, освещены усилия Китая по созданию ключевых университетов и внедрению новых академических дисциплин («Проект 211», «Проект 985», «Проект двойной академической степени»).

Ключевые слова: Китай; высшее образование; реформирование образования в Китае; система образования Китайской Народной Республики; динамика университетов и студентов; университеты и выпускники академических вузов высшей степени.

Oliy ta’lim quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: yuqori darajadagi mutaxassislarni tayyorlash; fan, texnika va madaniyatni rivojlantirish; ijtimoiy modernizatsiya jarayonining rivojiga ko‘maklashish. Islohot va ochiqlik siyosati boshlanganidan (1978 yil) buyon Xitoy oliy ta’limning barqaror va sog‘lom rivojlanishiga katta e’tibor qaratib, uni standartlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Tadqiq etilayotgan davrda Xitoy oliy ta’limi yaqqol rivojlanish tendensiyasini namoyon etdi va qoniqarli natijalarga erishdi.

Xitoyda ta’limni, ayniqsa oliy ta’lim sohasini isloh qilish masalalari xitoylik, rossiyalik va Markaziy Osiyolik olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Shensi provinsiyasidagi boshlang‘ich ta’lim sifatini monitoring qilish va baholash tadqiqot markazi direktori, pedagogika fanlari doktori Qi Chjanyun (2018) Xitoyda oliy ta’lim islohotining rivojlanish jarayonini yoritishga harakat qilgan [1, 17–19-betlar]. Suychjou texnologiya instituti professori Chen Shoting (2023) oliy ta’lim islohoti va ushbu tizimdagi innovatsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yangi texnologik inqilob sharoitida tahlil qilgan [2, 7-bet].

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral


Shuningdek, Tyanjin xorijiy tillar universiteti professori Van Minyuy (2023) [3, 4–7-betlar] hamda Xitoy Pedagogika fanlari akademiyasi direktorining o‘rinbosari Yu Fayuy (2023) [4, 7–9-betlar] ushbu muammoning ayrim jihatlarini tadqiq etish bilan shug‘ullanganlar. Pedagogika fanlari nomzodi M. V. Vaskina (2023) mazkur sohadagi innovatsiyalarning miqdoriy ko‘rsatkichlariga e‘tibor qaratgan [5, 30–32-betlar]. Fan doktori L. V. Pirojenko (2023) [6, 72–74-betlar] va dotsent A. V. Korteleva (2023) [7, 29–30-betlar] esa Xitoy oliy ta‘lim tizimining o‘ziga xos jihatlarini va hozirgi holatini tahlil qilganlar.

XKP (Xitoy Kommunistik partiyasi)ning XIV syezdi (1992) sotsialistik bozor iqtisodiyoti tizimini barpo etishga chaqirdi. Bu nafaqat Xitoy modernizatsiyasi jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi, balki mamlakat oliy ta‘lim tizimi islohotlarini ham rag‘batlantirdi. Tadqiq etilayotgan davrda Xitoy oliy ta‘limining rivojlanishidagi eng muhim xususiyatlardan biri talabalar soni va ta‘lim muassasalari miqdorining keskin oshishi, yangi universitetlarning tashkil etilishi hamda jahon darajasiga mos keladigan akademik fanlarning joriy etilishi bo‘ldi.

Standartlashtirish bosqichi (1992–1998 yy.) 1993 yil yanvar oyida XXR Ta‘lim bo‘yicha milliy komissiyasi “Oliy ta‘lim islohotlarini jadallashtirish va uni faol rivojlantirish to‘g‘risida fikrlar” hujjatini e‘lon qildi. Unda oliy ta‘lim islohotining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi (Oliy o‘quv yurtlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularni boshqarish tizimini o‘zgartirish, talabalarni qabul qilish va taqsimlash tizimini yangilash).

Besh yildan so‘ng XXR Davlat kengashi Yangchjou shahrida oliy ta‘limni boshqarish milliy tizimini isloh qilish bo‘yicha tajriba almashish yig‘ilishini o‘tkazdi. Unda islohotlarning maqsadlari, bosqichlari va usullari qo‘shimcha ravishda muhokama qilindi. 1998 yil 1 iyulda hukumat qaror qabul qilib, u vazirliklar, mahalliy hukumatlar va universitetlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik muammosini hal etdi [8].


XX asr oxiriga kelib, universitetlarni boshqarish tizimini isloh qilishning asosiy vazifalari, asosan, bajarildi: provinsiya(viloyat) hukumatlari yetakchi rol o‘ynaydigan, markaziy va viloyat hukumatlarining qo‘shma boshqaruviga asoslangan yangi tizim shakllandi.



1-rasm. Oliy ta‘lim muassasalari soni (1992-2022 yy.).
Manba: [9]

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Talabalar, magistrantlar va aspirantlar soni (ming kishida)



2-rasm. Talabalar, magistrantlar va aspirantlar soni (1992-2022 yy.). Manba: Rosstat

Xitoy Milliy statistika byurosi ma’lumotlariga ko’ra, ushbu bosqichda mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalari soni sezilarli darajada o’zgarmagan, biroq talabalar soni asta-sekin oshgan: 1992 yilda 720,6 mingdan 1998 yilda 1011 mingga (+40%) yetgan. Xitoy oliy ta’lim tizimi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashishga muvaffaq bo’ldi va keyingi bosqichda oliy ta’limni kengaytirish va tezkor rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratildi.

Xitoy oliy ta’lim tizimida tayanch universitetlarni barpo etish va yangi akademik fanlarni joriy etish yo’nalishi belgilandi. 1992 yilda Xitoy XXI asrga kirish maqsadida taxminan 100 ta universitetni tashkil etish va bir qator muhim fanlarni joriy etishga e’tibor qaratdi (211-loyiha). 1998 yilda “XXI asrda ta’limni qayta tiklash bo’yicha harakatlar rejasi” bir qator universitetlarni barpo etish va ilg’or xalqaro darajaga mos keladigan, amalga oshirish sharoitlari mavjud fanlarni joriy etishga yo’naltirildi (985-loyiha). Ushbu ikki chora-tadbir Xitoy oliy ta’lim tizimining rivojlanishini tezlashtirdi [1, 18-bet].

Rivojlanish bosqichi (1999–2009 yy.) Bu bosqichni Xitoy fuqarolari orasida oliy ta’lim qamrovini kengaytirishning oltin o’n yilligi deb ham atash mumkin. 1998 yilda Xitoy talabalar soni oshgan bo’lsa-da, u atigi 1,01 mln.ni tashkil etgan edi (bu yosh guruhining 9,8% ga teng), bu nafaqat rivojlangan mamlakatlar darajasidan sezilarli darajada past, balki xalqaro minimal standart (15%)dan ham past edi. 1999 yil iyun oyida o’tkazilgan XXR Ta’lim bo’yicha Uchinchi Milliy yig’ilishi natijasida oliy ta’limni kengaytirish yo’nalishi belgilandi [4, 8-bet].

Ushbu bosqichda oliy ta’lim muassasalarida o’qiyotgan talabalar soni 1,6 mln.dan 6,4 mln.gacha oshdi. Bakalavriat talabalari soni 4,2 mln.ga, magistrantlar va doktorantlar esa 0,418 mln.ga ko’paydi; oliy ta’lim muassasalari soni 1071 tadan 2 305 taga yetib, 1,15 barobar oshdi [9].

Oliy ta’limning kengayishi nafaqat universitetlar va talabalar sonining oshishi bilan, balki tayanch universitetlarni barpo etish va yangi istiqbolli fanlarni joriy etish bilan ham namoyon bo’ladi. 2004 yil iyulda Ta’lim vazirligi “985-loyiha qurilishini boshqarish choralari”ni e’lon qildi, unda “985-loyiha” va “211-loyiha” asosida jahon darajasidagi universitetlar va birinchi toifali fanlarni yaratish strategik maqsad qilib belgilandi. 2007 yilda tegishli vazirlik “Tadqiqot universitetlarini barpo etishni tezlashtirish va universitetlarning mustaqil innovatsion salohiyatini oshirish bo’yicha bir nechta fikrlar”ni e’lon qildi, unda 2020 yilga borib milliy tayanch ilmiy-tadqiqot bazalariga ega fundamental tadqiqot universitetlari guruhini va keng xalqaro hamkorliklarni shakllantirish taklif qilindi [10].

Mukammallashtirish bosqichi (2010–2022 yy.) Mamlakat iqtisodiyotining tez rivojlanishi, sanoat tuzilmasini optimizatsiya qilish va transformatsiya qilish sharoitida yuqori sifatli kadrlar tayyorlashga yangi talabalar qo’yilmoqda. XKPning XVIII syezdida (2012 yil) birinchi marta “oliy ta’limning konnotativ rivojlanishi” kontseptsiyasi taklif qilindi, bu esa Xitoy oliy ta’limi nafaqat miqdoriy ko’rsatkichlarga, balki chuqur o’zgarishlarga, konnotativ rivojlanishga (oliy ta’limning mazmuniy va sifat jihatdan rivojlanishi) e’tibor qaratgan bosqichga kirganini ko’rsatdi. 2015 yil oktyabr oyida Ta’lim vazirligi, Davlat rivojlanish va islohotlar qo’mitasi hamda XXR Moliya vazirligi “Ayrim mahalliy umumiy bakalavriatga ega oliy o’quv yurtlarini amaliyotga yo’naltirilgan oliy ta’lim muassasalariga aylantirish bo’yicha asosiy qarashlar”ni e’lon qildi [11].

Ushbu bosqichda oliy ta’lim muassasalari soni va talabalar soni o’sish tendensiyasini saqlab qoldi. Xususan, 2018–2019 yillarda talabalar soni sezilarli darajada oshdi, bu asosan demografik omillarga bog’liq edi. 2019 yilda universitetlarga qabul qilingan abituriyentlar soni 10,19 mln.ga yetdi, bu 2018 yilga nisbatan deyarli 500 mingga ko’p. XXR Ta’lim vazirligi ma’lumotlariga ko’ra, 2017

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

yilda mamlakatda 3000 dan ortiq yangi magistratura va doktorantura dasturlari ochilgan, shuning uchun 2018 yildan keyin magistrantlar va doktorantlar soni ham tez sur’atda oshdi [9].

2017 yilda “211-loyiha” va “985-loyiha” birlashtirilib, “Double First-Class Project” (birinchi toifali universitetlar va akademik fanlar) amalga oshirilishi boshlangan; ushbu loyihaning ikkinchi bosqichi 2022 yilda amalga oshirilib, 331 ta fan va 147 ta universitetni qamrab oldi.

“Birinchi toifali” akademik fanlar qatorida 59 ta asosiy fan (matematika, fizika, kimyo), 180 ta muhandislik fani va 92 ta gumanitar fan mavjud. Asosiy fanlar bo‘yicha yetakchilar Xitoy Fanlar Akademiyasi universiteti va Shanxay Transport Universiteti bo‘lsa, muhandislik fanlari bo‘yicha yetakchilar Tsinghua Universiteti va Zhejiang Universiteti, gumanitar fanlar bo‘yicha esa Pekin Universiteti, Xitoy Xalq Universiteti va Pekin Pedagogika Universiteti hisoblanadi [12].

2017 yilda XKPning XIX syezdidagi hisobotda Bosh Rais Si Szinpin birinchi toifali universitetlar va birinchi toifali fanlarni barpo etishni tezlashtirish, oliy ta’limni har tomonlama rivojlantirish zarurligini ta’kidladi. “Double First-Class” ni amalga oshirish xalqaro darajadagi mutaxassislar tayyorlashga yordam berdi va Xitoyni oliy ta’lim sohasida yirik davlatdan kuchli davlatga aylantirishga ko‘maklashdi [13].

30 yillik rivojlanishdan so‘ng, Xitoy oliy ta’limining tuzilmasi va tizimi tobora mukammal bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, oliy ta’lim hajmi jahon hajmining beshdan birini tashkil qilib, dunyoda birinchi o‘rinni egallasa-da, Xitoyning katta aholisi tufayli boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan katta tafovut mavjud. 2022 yil ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoyda oliy ma’lumotga ega aholi soni 218 mlndan oshgan, bu umumiy aholining 15,47% ni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Xitoy barcha rivojlangan va hatto ba’zi rivojlanayotgan mamlakatlardan sezilarli darajada ortda qolmoqda. Shunday qilib, zamonaviy global texnologik inqilob va tobora keskinlashayotgan xalqaro raqobat sharoitida sifatni ta’minlashning ishonchli tizimini barpo etish, birinchi toifali universitetlar va birinchi toifali fanlarni tezkor rivojlantirish hamda xalqaro almashinuv va hamkorlikni kengaytirish Xitoy oliy ta’limining sog‘lom va barqaror rivojlanishini ta’minlovchi kafolatdir.

Xulosa

Xitoyda oliy ta’lim tizimini isloh qilish 1992–2022 yillar davomida bosqichma-bosqich amalga oshirilib, miqdoriy kengayishdan sifatga yo‘naltirilgan konnotativ rivojlanish bosqichiga o‘tildi. “211-loyiha”, “985-loyiha” va “Double First-Class Project” orqali tayanch universitetlar va xalqaro darajadagi akademik fanlar shakllantirildi, bu esa Xitoyning oliy ta’lim sohasida global raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirdi. Biroq, aholining juda katta bo‘lishi tufayli oliy ma’lumotga ega aholining umumiy ulushi hanuz rivojlangan mamlakatlardan pastligicha qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Xitoy tajribasi O‘zbekiston uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oliy ta’lim qamrovining keskin oshishi, yangi universitetlar va xorijiy filiallarning ochilishi, amaliy yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalariga e’tibor kuchaytirilishi Xitoy modelining ayrim jihatlari muvaffaqiyatli tatbiq etilayotganini ko‘rsatadi. Bu esa O‘zbekiston oliy ta’limini sifatli rivojlantirishda uzoq muddatli strategik yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ци Чжэньюн. Эволюция политики высшего образования Китая за последние 40 лет реформ и открытости / Чжэньюн Ци // Исследование высшего образования. — 2018. — № 4. — С. 16—22.
2. Чэнь Шоутин. Реформа высшего образования Китая на фоне строительства двойного первого класса» / Шоутин Чэнь // Образование в университетах. — 2023. — № 2. — С. 5—8.
3. Ван Миньюй. Миссия и обязанности высшего образования в Китае в новую эпоху / Миньюй Ван // Журнал Второго пекинского института иностранных языков. — 2023. — № 6. — С. 3—20.
4. Юй Фаю. 45 лет реформы системы образования Китая: история, опыт и перспективы / Фаю Юй // Исследования истории образования. — 2023. — № 4. — С. 4—16.
5. Васькина, М. В. Государственное реформирование высшего образования в современном Китае / М. В. Васькина // Вестник Оренбургского государственного университета. — 2023. — № 1(237). — С. 28—35.
6. Пироженко, Л. В. Современное состояние и направления развития высшего образования в КНР / Л. В. Пироженко, Л. С. Смолинчук // Вестник НАУ. Серия: педагогика и психология. — 2023. — № 1(22). — С. 70—78.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

7. Кортелева, А. В. Социальная значимость реформирования института образования в современном Китае. / А. В. Кортелева, О. А. Симоненко // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. — 2023. — № 5. — С. 28—33.

8. Численность учащихся всех уровней и типов школ [Электронный ресурс] // Национальное бюро статистики КНР. – Режим доступа:

<https://data.stats.gov.cn/adv.htm?f=aq&cn=C01&nodeid=A0M08&wdcode=zb>. – Дата доступа: 15.01.2024.

9. Основные мнения о преобразовании некоторых местных общих вузов с бакалавриатом в прикладно-ориентированные [Электронный ресурс] // Центральное Правительство КНР. – Режим доступа:583

https://www.gov.cn/gongbao/content/2016/content_5046077.htm – Дата доступа: 17.01.2024.

12. Перечень строительных дисциплин «двойного первого класса» [Электронный ресурс] // Министерство образования КНР. – Режим доступа:

http://www.moe.gov.cn/s78/A22/A22_ztzt1/ztzt1_tjsylpt/sylpt_jsxk/201712/t20171206_3206–
Дата доступа: 12.02.2024.